



TIL IJTIMOIY HODISAMI YOKI INSONNING BIOLOGIK TABIATIMI?

*Muxammadiyeva Risola**Navoiy davlat pedagogika instituti**Ingliz tili va adabiyoti fakulteti o'qituvchisi**Ochilova Mashhura Muhammadovna**Navoiy davlat pedagogika instituti**Ingliz tili va adabiyoti fakulteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: Insonlar til haqida o‘ylar ekan, til nima, u qanday paydo bo‘lgan, u insonning bir bo‘lagimi yoki yo‘qmi, jamiyatning tilga nisbatan ta’siri bormi, degan savollarga javob topishga harakat qilishadi. Ko‘pgina tilshunos olimlar bu savollar bo‘yicha juda ko‘p tadqiqotlar olib borgan va ba’zi faktlarni aytib o’tgan. Ushbu maqolada tilga qanday qilib to’g’ri ta’rif berish mumkinligi tasvirlangan va til qanday hodisa, ijtimoiy yoki tabiiy ekanligi muhokama qilinadi.

Аннотация: Когда люди думают о языке, они пытаются найти ответы на вопросы о том, что такое язык, как он возник, является ли он частью человека или нет, оказывает ли общество влияние на язык. Многие лингвисты провели много исследований по этим вопросам и привели некоторые факты. В этой статье описывается, как языку можно дать истинное определение, и обсуждается, каким явлением является язык, социальным или естественным.

Kalit so‘zlar: til, muloqot, jamiyat, ijtimoiy hodisa, biologik tabiat.

Ключевые слова: язык, общение, общество, социальное явление, биологическая природа

Til o‘zi nima? Jamiyatda yashaydigan odamlar har doim bir-birlari bilan turli yo’llar orqali muloqot qilishadi. Mimika, imo-ishoralar, xatlar, matnli xabarlar va boshqalar muloqot qilishning shunday usullaridir. Biroq, ular orasida odamlar bir-biri bilan muloqot qilish uchun asosan tildan foydalanadilar. Shuning uchun ham til faqat aloqa vositasi, degan fikr keng tarqalgan. Bu fikr “Til nima?” degan savolga aniq javobmi? Ko‘pgina olimlar tilga turli xil ta’riflar bergen. Masalan, Piter Trudgillning so‘zlariga ko‘ra, "til shunchaki biror narsa haqida muloqot qilish vositasi emas, balki u boshqa odamlar bilan munosabatlarni o’rnatish va qo’llab-quvvatlashning juda muhim vositasidir" [P. Trudgill. Ijtimoiy lingvistika: til va jamiyatga kirish. b 1]. Trudgil fikrini oydinlashtirish maqsadida real hayotiy vaziyatni misol qilib keltirdi. Uning ta’kidlashicha, "agar siz biron bir joyda tanish bo’lmagan odam bilan qolsangiz, bu juda noqulay vaziyat bo’lishi mumkin". Bunday vaziyatdan qochish uchun odamlar ba’zi tabiiy mavzular, masalan, ob-havo haqida gapirishga moyil. Bu unchalik qiziq mavzu emas, lekin bu sukunatni buzish va bir-birini tanimaydigan ikki kishi o’rtasida



munosabatlar o'rnatishning ajoyib usuli. Shu nuqtai nazardan qaraganda, til odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan kuchga ega ekanligini anglashimiz mumkin.

Ko'p yillar davomida ko'plab olimlar tilning qanday paydo bo'lganligi bilan qiziqishmoqda. Til insonning biologik qismimi yoki yo'qmi, degan savol keng tarqalgan. Ikkala holatda ham ular o'z g'oyalarini qo'llab-quvvatlash uchun asosli sabablar keltirdilar. Masalan, nemis olimi Aleksandr Shleyxerning ta'kidlashicha, "...til - bu ma'lum qonuniyatlar asosida o'sib, rivojlangan tabiiy organizmdir" [M. Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. b 2]. Ular o'z navbatida qariydi va o'ladi. Hatto, misol sifatida, lotin va sanskrit tillari Shleyxer tarafдорлари tomonidan ko'rsatilgan. Shleyxerning so'zlariga ko'ra, "... bola ma'lum yoshga kirganida gapira oladi". Albatta, har bir bolada hech qanday qiyinchilik va hech qanday qoida-qoidalarsiz tilni o'zlashtirishning tug'ma qobiliyatni borligini inkor etib bo'lmaydi. "Ular lingafon laboratoriylariga bormaydilar va yod olishlari uchun mashqlar berilmaydi" [Z.Salzmann, J.M.Stanlow, N.Adachi. Til, madaniyat va jamiyat. 119-bet]. Qolaversa, tillar yillar davomida rivojlanib, ma'lum bir tilning ba'zi so'zları yo'qolib, ba'zilari esa odamlar tomonidan yaratilgani haqiqat. Shu sabablarga ko'ra, Shleyxerning til haqidagi fikrlari qisman to'g'ri bo'lishi mumkin, deyish mumkin.

Biroq, boshqa ekspertlar bu fikrga qo'shilmaydi. Ular til tabiiy emas, ijtimoiy hodisa, degan fikr tarafдори. Chunki tilni o'zlashtirishda jamiyatning o'rni muhim. Masalan, bolalar tilni egallah qobiliyatiga ega bo'lsalar ham, ular odamlarsiz tilni o'rgana olmaydi. Bu qobiliyatni rivojlantirish uchun jamiyatning bir qismi sifatida oila bo'lishi kerak. "Aslida, bolalar juda oz kuch sarflab, atrofdagi tilni o'zlashtirib olishadi" [Z.Zalzmann, J.M.Stenlou, N.Adachi. Til, madaniyat va jamiyat. 119-bet]. Bundan tashqari, agar odam yolg'iz yashasa, u hech kim bilan muloqot qilishning hojati yo'q va til ishlatmaydi. Demak, jamiyatsiz til bo'lmaydi. Jamiyatning tilga qanday ta'sir qilishi mumkinligining yana bir sababi shundaki, bola atrofidagi odamlar qaysi tilda gapirsa o'sha tikni o'rganadi. "Agar mening bolalarim Tokioda katta bo'lganida, u yerdagi boshqa bolalar kabi yapon tilida gaplashardilar" [N.Chomskiy. Til va ongi o'rganishda yangi ufqlar. b 4]. Agar til insonning biologik qismi bo'lganida, u biologik jihatdan avloddan-avlodga o'tib ketar edi, lekin til faqat bola yashaydigan jamiyat bilan bog'liqligini ko'rish mumkin. Shu sabablarga ko'ra tilning tabiiy emas, ijtimoiy hodisa ekanligi ayon bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, til fikr va hissiyotlarni ifodalash vositasidir. Bir tomonidan, ba'zi odamlar tilni insonning biologik qismi deb o'yashlari mumkin, ammo boshqa tomonidan, til va jamiyat o'rtasida kuchli aloqa mavjud. Til ijtimoiy o'zaro ta'sir va integratsiya uchun zarurdir. Jamiyatsiz til yo'q. Shuning uchun ham tilga ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi.



Foydalaniman adabiyotlar:

1. M. Irisqulov. Tilshunoslikka kirish , Toshkent, 1992.
2. P. Trudgill. Ijtimoiy lingvistika: til va jamiyatga kirish, Angliya, Pingvin kitoblari, 2000 (4-nashr).
3. N.Chomskiy. Til va ongni o'rganishda yangi ufqlar, Kembrij universiteti nashriyoti, 2000 yil.
4. Z.Zalzmann, J.M.Stenlou, N.Adachi. Til, madaniyat va jamiyat, Westview Press, 2012
5. [https://socialsci.libretexts.org/Courses/HACC_Central_Pennsylvania's_Community_College/ANTH_205%3A_Cultures_of_the_World_-Perspectives_on_Culture_\(Scheib\)/05%3A_Language/5.02%3A_Biological_Basis_of_Language_and_Language_Aquisition](https://socialsci.libretexts.org/Courses/HACC_Central_Pennsylvania's_Community_College/ANTH_205%3A_Cultures_of_the_World_-Perspectives_on_Culture_(Scheib)/05%3A_Language/5.02%3A_Biological_Basis_of_Language_and_Language_Aquisition)

